



NAMANGAN VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik

2024- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar


2024- yilning 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni **21,9** mingtani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **1,2** mingtaga kamaygan yoki **5,1** % ga pasaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **9,1** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar


2024- yilning yanvar-iyunida **2,2** mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **11,1** % ga kam demakdir.

Yuridik shaxs – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

2020-2024- yillar 1- iyul holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), ming birlikda



2024- yilning 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan sohalar bo'yicha soni va ulushi



Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar


Hududlar bo'yicha 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

2023- y.		2024- y.
23 058	Namangan viloyati	21 877
7 101	Namangan sh.	6 718
1 976	Chust	1 910
1 737	Pop	1 620
1 636	Uchqo'rg'on	1 580
1 591	To'raqo'rg'on	1 425
1 417	Namangan	1 400
1 407	Chortoq	1 385
1 397	Kosonsoy	1 310
1 400	Uychi	1 261
1 149	Norin	1 141
1 159	Yangiqo'rg'on	1 092
1 088	Mingbuloq	1 035

2024- yil 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni jami **21 877** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **2 190** tani tashkil etdi.

2024- yilning 1- iyul holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Namangan shahrida **6 718** tani yoki jamiga nisbatan **30,7 %** ni tashkil etdi.

1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda





Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda)*

Mingbuloq	11,9
Uchqo'rg'on	10,5
Chortoq	10,4
Chust	10,1
Namangan sh.	9,6
Pop	9,3
Namangan	9,0
Norin	8,4
To'raqo'rg'on	7,8
Yangiqo'rg'on	7,6
Kosonsoy	7,3
Uychi	6,9

Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati 1- iyul holatiga, birlikda



2024- yil 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har **1000** aholiga nisbatan **9,1** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2023- yilga nisbatan **0,6** birlikka kamaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har **1000** aholiga nisbati eng yuqori ko'rsatkich Mingbuloq tumanida **11,9** birlik, Uchqo'rg'on tumanida **10,5** birlik, Chortoq tumanida **10,4** birlik, Chust tumanida **10,1** birlik va Namangan shahrida **9,6** birlikka yetdi.


* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

Eng yuqori ko'rsatkich

Mingbuloq tumani
– 11,9 birlik.




O'rta ko'rsatkich

Namangan tumani
– 9,0 birlik.



Eng past ko'rsatkich

Uychi tumani
– 6,9 birlik.



Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Mingbuloq tumanida **11,9** birlik, Uchqo'rg'on tumanida **10,5** birlik, Chortoq tumanida **10,4** birlik, Chust tumanida **10,1** birlik, Namangan shahrida **9,6** birlik, Pop tumanida **9,3** birlik, Namangan tumanida **9,0** birlik va Norin tumanida **8,4** birlik kuzatildi.

Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

2024- yil 1- iyul holatiga har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari soni ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda

Namangan shahrida

Chortoq tumani

Mingbuloq tumani

9,6

10,1

10,4

10,5

11,9

Chust tumani

Uchqo'rg'on tumani

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar


yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

2023- y.

2024- y.

192	Mingbuloq	155
165	Kosonsoy	150
101	Namangan	78
138	Norin	124
186	Pop	174
191	To'raqo'rg'on	108
162	Uychi	97
209	Uchqo'rg'on	200
181	Chortoq	136
141	Chust	153
139	Yangiqo'rg'on	151
659	Namangan sh.	664

2024- yilning yanvar-iyunida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da




2024- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Namangan shahri – **30,3** %, Uchqo'rg'on tumanii – **9,1** %, Pop tumani – **7,9** %, Mingbuloq tumani – **7,1** %, Chust tumani – **7,0** %, Yangiqo'rg'on va Kosonsoy tumanlari – **6,9** %, Chortoq tumani – **6,2** % hissalariga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2023-2024- yillarning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




2024- yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 851 ta, sanoatda 444 ta hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 208 ta yangidan tashkil etilgan.


Shahar va tumanlar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxona va mikrofirma Namangan shahrida 664 ta, Uchqo'rg'on tumanida 200 ta, Pop tumanida 174 ta hamda Mingbuloq tumanida 155 ta yangidan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlik



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2020-2024- yillarning yanvar-iyuni davomida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlik



So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab - quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2020-2024- yillarning yanvar-iyun oylari davomida jami **14 139** ta kichik korxona va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida – **5 299** (yoki **37,5 %**) ta, sanoat sohasida – **3 482** (yoki **24,6 %**) ta, xizmatlar sohasida – **2 695** (yoki **19,1 %**) ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **1 853** (yoki **13,1 %**) ta va qurilish sohasida – **810** (yoki **5,7 %**) tani tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yanvar - iyun oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da




Sanoat



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Investitsiya



Qurilish




Chakana savdo




Xizmatlar



Yuk tashish



Yuk aylanmasi



Yo'lovchi tashish



Yo'lovchi aylanmasi




Eksport



Import

■ 2023- y. ■ 2024- y.




■ 2023- y. ■ 2024- y.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi (yanvar-iyun oylarida), % da

2024- yilning yanvar-iyunida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **68,0** % ni tashkil qilib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **1,6** punktga kamaygan.




2024- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlari, % da




2024- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari yo'lovchi tashishda **97,2** % ni, qishloq xo'jaligida **95,4** % ni, yo'lovchi aylanmasida **95,3** % ni, yuk aylanmasida **93,4** % ni, chakana savdoda **92,7** % ni, qurilishda **92,7** % ni, yuk tashishda **92,1** %ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-iyun oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-iyun oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2024- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm

Namangan sh.	2695,8
Namangan	654,6
Uychi	490,9
Kosonsoy	376,4
Pop	293,0
Norin	290,3
Chust	242,3
To'raqo'rg'on	206,5
Yangiqo'rg'on	191,9
Mingbuloq	143,4
Chortoq	132,2
Uchqo'rg'on	131,8

2024- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **5 849,2** mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Namangan shahri (**2 695,8** mlrd. so'm), Namangan (**654,6** mlrd. so'm), Uychi (**490,9** mlrd. so'm), Kosonsoy (**376,4** mlrd. so'm) va Pop (**293,0** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Uchqo'rg'on tumanida (**131,8** mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2019-2024- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, trln. so'm

2024- yil yanvar-iyunida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **46,5 %** ni tashkil etdi.



2024- yilning yanvar-iyunida hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Yangiyo'rg'on tumani (**100,0 %**), Norin tumani (**99,9 %**), Pop tumani (**91,7 %**), Namangan tumani (**77,0 %**), Uychi tumani (**69,7 %**), Namangan shahri (**60,6 %**) tashkil etdi.



Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi



2024- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi

Namangan sh.	1037,7	95,2
Uychi	430,4	98,3
Kosonsoy	269,1	93,6
Chortoq	255,9	96,0
Uchqo'rg'on	215,9	85,0
Namangan	212,0	90,3
Yangiqo'rg'on	183,7	96,4
Chust	183,6	97,8
Norin	166,4	96,2
To'raqo'rg'on	150,3	97,3
Mingbuloq	111,1	93,7
Pop	102,1	54,9

hajmi, mlrd. so'mda


ulushi, % da

2024- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **3 318,2** mlrd. so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **92,7** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **108,9** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Namangan shahri (**1 037,1** mlrd. so'm), Uychi (**430,4** mlrd. so'm), Kosonsoy (**269,1** mlrd. so'm), Chortoq (**255,9** mlrd. so'm), Uchqo'rg'on (**215,9** mlrd. so'm), Namangan (**212,0** mlrd. so'm) Yangiqo'rg'on (**183,7** mlrd. so'm) va Chust (**183,6** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2019-2024- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda



2024- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **12 454,2** mlrd. so'mni yoki jami investitsiya hajmining **74,5 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan **186,5 %** ni tashkil qildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Namangan shahri (**5 331,5** mlrd. so'm), Pop (**1782,3** mlrd. so'm), To'raqo'rg'on (**837,2** mlrd. so'm), Namangan (**789,4** mlrd. so'm), Uchqo'rg'on (**625,7** mlrd. so'm), Uychi (**568,5** mlrd. so'm) hamda Chortoq (**536,4** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2019-2024- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da



2019-y. 2020-y. 2021-y. 2022-y. 2023-y. 2024-y.

2024- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi




■ hajmi, mlrd. so'm ■ ulushi, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi faoliyati

2024- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **11 384,4** mlrd. so'mni yoki jami qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmining **95,4** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **102,6** % ni tashkil qildi.

2019-2024- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo'jaligi hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi Yangiqo'rg'on (**1 190,5** mlrd. so'm), To'raqo'rg'on (**1 125,2** mlrd. so'm), Uychi (**1 108,8** mlrd. so'm), Chust (**1 104,2** mlrd. so'm), Namangan (**1 078,0** mlrd. so'm), Pop (**1 057,0** mlrd. so'm) tumanlari hamda Namangan shahrida (**965,8** mlrd. so'm) qayd etildi.

2024- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi

Yangiqo'rg'on	1190,5	99,8
To'raqo'rg'on	1125,2	99,1
Uychi	1108,8	97,8
Chust	1104,2	99,7
Namangan	1078,0	93,8
Pop	1057,0	88,4
Namangan sh.	965,8	85,6
Uchqo'rg'on	951,3	96,4
Chortoq	782,1	99,4
Norin	751,8	96,4
Kosonsoy	666,9	99,3
Mingbuloq	602,6	90,2


hajmi, mlrd. so'mda ———→
ulushi, % da ———→

2019-2024- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligidagi ulushi dinamikasi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi




2024- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **9 055,5** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **92,7 %** ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **108,4 %** ni tashkil qildi.

2024- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi

Namangan sh.	3411,0	88,9
Chust	768,6	94,1
To'raqo'rg'on	649,6	92,0
Uychi	593,3	99,2
Pop	556,7	91,9
Yangiqo'rg'on	509,3	96,7
Norin	497,6	95,9
Uchqo'rg'on	467,2	98,1
Chortoq	435,1	91,6
Kosonsoy	434,0	98,7
Namangan	421,7	93,7
Mingbuloq	311,3	98,0

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Namangan shahri (**3 411,0** mlrd. so'm), Chust (**768,6** mlrd. so'm), To'raqo'rg'on (**649,6** mlrd. so'm), Uychi (**593,3** mlrd. so'm), Pop (**556,7** mlrd. so'm), Yangiqo'rg'on (**509,3** mlrd. so'm) va Norin (**497,6** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

2019 va 2024- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarishi, trln. so'm




hajmi, mlrd. so'mda

ulushi, % da

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatish hajmi, mlrd. so'mda

Namangan sh.	2 011,0
Chust	508,1
Uychi	486,5
To'raqo'rg'on	468,1
Pop	448,4
Namangan	435,5
Chortoq	423,9
Yangiqo'rg'on	408,3
Kosonsoy	399,8
Uchqo'rg'on	379,8
Norin	357,4
Mingbuloq	307,4

2024- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **6 634,2** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **66,2 %** ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2023- yil yanvar - iyun oylariga nisbatan **114,9 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Namangan shahri (**2 011,0** mlrd. so'm), Chust (**508,1** mlrd. so'm), Uychi (**486,5** mlrd. so'm), To'raqo'rg'on (**468,1** mlrd. so'm), Pop (**448,4** mlrd. so'm), Namangan (**435,5** mlrd so'm) va Chortoq (**423,9** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan turlari
(yanvar-iyun oylarida)

2 686,0	Savdo xizmatlari	40,5
1 614,7	Transport xizmatlari	24,3
693,5	Shaxsiy xizmatlar	10,5
293,3	Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	4,4
261,5	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	3,9
259,9	Boshqa xizmatlar	3,9
224,8	Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	3,4
151,9	Ijara xizmatlari	2,3
145,0	Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	2,2
111,9	Ta'lim sohasidagi xizmatlar	1,7
67,7	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	1,0
62,2	Moliyaviy xizmatlar	0,9
61,8	Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	0,9

Hajmi, mlrd. so'mda

Ulushi, foizda


Yuqoridagi diagramma ma'lumotlariga ko'ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi savdo xizmatlarida – **40,5 %** (**2 686,0** mlrd. so'm), transport xizmatlarida – **24,3 %** (**1 614,7** mlrd. so'm), shaxsiy xizmatlarda – **10,5 %** (**693,5** mlrd. so'm) hamda kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarda **4,4 %** (**293,3** mlrd. so'm)ni tashkil etdi.

Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarda **0,9 %** (**61,8** mlrd so'm) kuzatildi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-iyun oylarida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dol.




Ulushi, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dol.




Ulushi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-iyunida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **135,7** million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **44,6** % ini tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi

Yangiqo'rg'on	9,6	100,0
Norin	12,1	100,0
Mingbuloq	2,9	100,0
Chortoq	0,8	82,1
Uychi	14,2	61,9
Namangan sh.	52,9	59,4
Namangan	6,5	54,1
Kosonsoy	11,8	28,6
To'raqo'rg'on	14,0	26,9
Chust	3,6	21,9
Pop	6,7	18,4
Uchqo'rg'on	0,6	6,8

hajmi, mln. AQSH dollar


ulushi, % da

2024- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Yangiqo'rg'on, Norin, Mingbuloq tumanlarida – **100,0** %, Chortoq tumanida – **82,1** %, Uychi tumanida – **61,9** %, Namangan shahrida – **59,4** %, Namangan tumanida – **54,1** % ni tashkil qildi.

Eng past ko'rsatkich Uchqo'rg'on tumanida – **6,8** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da




2024- yilning yanvar-iyunida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **214,0** million AQSH dollarini yoki jami importning **61,2** % ini tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2024- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Mingbuloq, Yangiqo'rg'on tumanlarida – **100,0** %, Norin tumanida – **97,5** %, Pop tumanida – **95,7** %, Uychi tumanida – **95,2** %, Uchqo'rg'on tumanida – **84,0** % va Kosonsoy tumanida – **75,5** % ni tashkil etdi.


Mingbuloq	100,0
Yangiqo'rg'on	100,0
Norin	97,5
Pop	95,7
Uychi	95,2
Uchqo'rg'on	84,0
Kosonsoy	75,5
Namangan sh.	64,3
Namangan	60,4
Chortoq	50,2
Chust	27,9
To'raqo'rg'on	17,9

Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati




**Yuk
tashishda**

2024- yilning yanvar-iyunida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **92,1 %** ni tashkil etdi. 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **115,6 %** ni tashkil qildi.




**Yuk
aylanmasida**

2024- yilning yanvar-iyunida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **93,4 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **108,4 %** ni tashkil qildi.



**Yo'lovchi
tashishda**

2024- yilning yanvar-iyunida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **97,2 %** ni tashkil etib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **111,4 %** ni tashkil qildi.




**Yo'lovchi
aylanmasida**

2024- yilning yanvar-iyunida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **95,3 %** ni tashkil etib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **106,1 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yil II chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, ming birlikda




2024- yil **II chorak** yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnomada **1 093** ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **321 (29,4 %)** tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **714 (65,3 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **58 (5,3 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – **41,5 % (453 ta)**, xizmatlar sohasida – **27,9 % (305 ta)**, sanoatda – **17,8 % (195 ta)**, qurilishda – **7,3 % (80 ta)**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **5,5 % (60 ta)**, ni tashkil etdi.

2024- yil II chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

52	Mingbuloq	4,8
55	Kosonsoy	5,0
61	Namangan	5,6
57	Norin	5,2
89	Pop	8,1
74	To'raqo'rg'on	6,8
72	Uychi	6,6
46	Uchqo'rg'on	4,2
75	Chortoq	6,9
80	Chust	7,3
35	Yangiqo'rg'on	3,2
397	Namangan sh.	36,3


Soni, ta

Ulushi, foizda

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Namangan shahri (397 ta), Pop (89 ta), Chust (80), Chortoq (75 ta), To'raqo'rg'on (74 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning II choragi uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarning soni 2019- yilning II choragida **193** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning II choragiga kelib esa **321** taga yetgan yoki 2019- yilning II choragiga nisbatan **128** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning soni 2019- yilda **731** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-iyunida **714** ta yoki **17** taga kamaygan.

O'z nabatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019- yilda **149** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilga kelib **58** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2019- yilga nisbatan **91** taga kamaygan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning II choragida umumiy iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik



Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalarning soni 2019- yilning **II choragida** 571 tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning **II choragiga** kelib esa, 357 taga yetgan yoki 2019- yilga nisbatan 214 taga kamaygan

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarning soni 2019- yilning **II choragida** 302 ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning **II choragida** 586 ta yoki 284 taga oshgan

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarning soni esa 2019- yilning **II choragida** 19 tani tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning **II choragiga** kelib, bu ko'rsatkich 56 tani tashkil etib, 37 taga oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning II choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), % da



Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning **II choragida 18,0 %** ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilga kelib esa, **29,4 %** ga yetgan yoki 2019- yilga nisbatan **11,4 %** oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2019- yilda **68,1 %** bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning **II choragida 65,3 %** yoki **2,8 %** ga kamaygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019- yilda **13,9 %** ni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilga kelib, bu ko'rsatkich **5,3 %** ga yetgan yoki **8,6 %** ga kamaygan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillar II choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o'tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning **II choragida 64,0 %** ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilga kelib esa, **35,7 %** ga yetgan yoki 2019- yilning **II choragida** nisbatan **28,3 %** kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarning ulushi 2019- yilning **II choragida 33,9 %** bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-iyunida **58,7 %** yoki **24,9 %** oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa, 2019- yilning **II choragida 2,1 %** ni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning **II choragiga** kelib, bu ko'rsatkich **5,6 %** yoki **3,5 %** birlikka oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2024- yilning **II choragida** o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **31,7** % ni, savdoda – **30,4** % ni, xizmatlar sohasida – **28,9** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qurilishda – **70,0** % ni, xizmatlar sohasida – **66,2** % ni, savdoda – **64,7** % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi sanoatda – **7,2** % ni, qurilishda – **5,0** % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **5,0** % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2024- yilning **II choragida** kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin **3** oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilishda – **48,7** % ni, xizmatlar sohasida – **46,2** % ni, savdoda – **43,5** % ni va tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin **3** oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **56,7** % ni, savdoda – **54,7** % ni, sanoatda – **53,3** % ni, tashkil etdi.

Yaqin **3** oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi sanoatda – **5,7** % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **3,3** % ni, xizmatlar sohasida – **3,0** % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	35,1	58,2	6,7
Band bo'lganlar soni	16,2	79,8	4,0
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	30,3	65,5	4,2
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	30,9	65,1	4,0
Raqobat muhiti	36,5	59,0	4,5

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	37,1	60,2	2,7
Band bo'lganlar soni	17,7	79,6	2,7
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	30,2	67,1	2,7
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	30,0	67,0	3,0
Raqobat muhiti	35,5	61,2	3,3


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash,
o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2024- yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash,
yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



* Faqat raqobat muhitiga tegishli